TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH –SAMARADORLIGI

Xudoyberdieva Nargiza Bozorboevna - Guliston shahar 10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bu esa, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni dolzarb masalaga aylantiradi. Bugungi ta’limda asosiy e’tibor o‘quvchining faolligini oshirish, uning tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ishlashga o‘rgatish, hayotiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilmoqda. Bu maqsadlarga erishish innovatsion va interfaol texnologiyalarni ta’limga keng joriy qilish orqali amalga oshirilmoqda.

Innovatsion texnologiyalar — bu ta’lim sifatini oshirish, samaradorlikka erishish va individual yondashuvni yo‘lga qo‘yishda qulay vositadir.

Ta’lim texnologiyasining hozirgi taraqqiyot bosqichi interfaol dars usullarining keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi.

Ilgari o‘qituvchi markazida bo‘lgan an’anaviy dars usullari: tayyor bilimni berishga, o‘quvchini tinglovchi sifatida ko‘rishga qaratilgan edi. Bu esa o‘quvchining passiv bo‘lib qolishiga, ijodiy fikrlash malakasining shakllanmasligiga sabab bo‘lardi. Interfaol darslar esa o‘quvchini bilimni izlab topuvchi, munozara qiluvchi, xulosa chiqaruvchi subyektga aylantiradi.

Misol: "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Rol o‘ynash" kabi usullar darsda o‘quvchini fikrlashga majbur qiladi, savol berishga undaydi, o‘rganishga qiziqtiradi.

Zamonaviy ta’limga qo‘yilayotgan asosiy talab — minimal kuch, maksimal natija tamoyiliga asoslanadi. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishsiz, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erisha olishi kerak.

Bu maqsadga erishishda quyidagilar muhim rol o‘ynaydi:

- To‘g‘ri tanlangan ta’lim metodlari;
- Zamonaviy, o‘quvchi markazli yondashuv;
- O‘quvchilarning qiziqishi va faolligini ta’minlovchi usullar;

Shuning uchun ham ta’limning muvaffaqiyati nafaqat darsning tashkiliy shakliga, balki qo‘llanilayotgan metodlarning sifatiga va samaradorligiga bog‘liq.

Bugungi kunda metodlar faqat ma’lumot etkazish vositasi bo‘lib qolmay, balki:

- Tafakkurni faollashtirish;
- Mustaqil fikrlashga undash;
- Muammoli vaziyatlarda harakat qilishga o‘rgatish;
- O‘zlashtirish darajasini nazorat qilish;

19. kabi ko‘p funksiyalarni bajarishi kerak.

Ya’ni, ta’lim jarayoni — bu o‘qituvchining aytganlarini eslab qolish emas, balki o‘quvchining o‘rganishdagi faol ishtiroki orqali shakllanuvchi muloqotli tizimdir.

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim darajasiga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida interfaol metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;

– ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;

– ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;

–ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;

– amalda bajarish orqali o'rganilishi;

– ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Bugungi ta'lim amaliyotida interfaol dars usullari keng qo'llanilmoqda. Ular, albatta, o'quvchining faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Ammo bularning barchasini ta'limdagi muammolarga universal yechim deb qabul qilish noto'g'ri.

Ikki asosiy xatolik yuzaga chiqadi:

- Bir tomondan, interfaol metodlarga haddan tashqari ishonch ularning real samaradorligiga shubha tug'diradi, ularga bo'lgan e'tiborni sun'iy ravishda pasaytiradi
- Ikkinchi tomondan, bu yondashuv o'zini oqlagan an'anaviy metodlarni asossiz ravishda chetga surib qo'yadi

Aslida esa:

Har bir metod o'z joyida va sharoitida foydalidir. Universal metod mavjud emas, har bir sinf, mavzu, o'quvchi va pedagog sharoitiga qarab metodlar tanlanishi kerak. An'anaviy va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish - ta'limning haqiqiy rivojlanish yo'li hisoblanadi.

Shuning uchun ham, o'quv jarayonini isloh qilishda interfaol metodlarni joriy qilish bilan birga, yillar davomida sinovdan o'tgan an'anaviy metodlarning samarali jihatlarini saqlab qolish va moslashtirish maqsadga muvofiq.

Amaliyot shuni ko'rsatadi-ki. O'qitish amaliyotida shunday jarayonlar borki, interfaol dars usullar ularni oxiriga etkazishda ish bermaydi, shunday mavzular borki, ularni o'tishda an'anaviy dars usullaridan foydalanish ko'proq samaraga olib keladi, shuning uchun ham o'qitish jarayonida an'anaviy va yangi pedagogik texnologiya shakllaridan, interfaol dars usullardan mutanosib tarzda, omuxta holda foydalanish lozim deb hisoblaymiz. Ba'zan bir soatlik dars davomida dars usullarini bir necha bor almashtirishga to'g'ri keladi. Bu, bizningcha darsning yanada qiziqarli, o'quvchilarning yanada faolroq bo'lishga olib keladi, chunki o'quvchilar goh sokin, goh jo'shqin faoliyatga jalb etilganda mutlaqo zerikmaydi.

Xulosa qilib aytganda, dars samaradorligini ta'minlashni maqsad qilib olgan o'qituvchi interfaol dars usullaridan o'z o'rnida mohirona foydalansagina o'z maqsadiga erishadi.

Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. O'quvchilar diqqatini nazariy bilimlarni o'rganishga va maqsadni arzirli natijalarni qo'lga kiritishga qaratish kerak, shuningdek, o'quvchilardan muhim nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, o'z ustida mustaqil ishlashlari ham zarurligi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: Cho'lpon, 2005.
2. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma T.: TASIS, 2001.-59-68 b.